

## KORXONA MARKETINGIDA RAQOBAT RAZVEDKASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

**Tursunov Bobir Ortikmirzayevich,**

i.f.d.(DSc.), professor, International School of Finance Technology and  
Science professori

SPIN-kod: 5913-1935; ORCID: 0000-0002-5004-375x; Scopus ID: 57210803189

**Tursunxo'jayev Sardorbek Jamoliddin o'g'li,**

i.f.f.d.(PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy xavfsizlik"  
kafedrası dotsenti v.v.b.

**Annotatsiya.** Maqolada korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan, korxona marketingida raqobat razvedkasini rivojlanish bosqichlari va tamoyillari keltirilgan, ilg'or xorijiy tajribani chuqur o'rganish asosida korxonalar iqtisodiy xavfsizligini baholash uslubiyati ishlab chiqilgan. Uslubiyat asosida mamlakatimizda radioelektronika, elektronika va asbobsozlik sanoatining rivojlanish dinamikasi va hozirgi holati o'rganilgan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili o'tkazilgan, "O'zeltexsanoat" AJ tarkibidagi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligi baholangan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy xavfsizlik, Korxona marketingi, Raqobat razvedkasi, Ilmiy-nazariy asoslar, Uslubiyat ishlab chiqish, Radioelektronika sanoati, Ekonometrik tahlil, Sanoat korxonalari

**Аннотация.** В статье рассмотрены научно-теоретические основы обеспечения экономической безопасности предприятий, представлены этапы и принципы развития конкурентной разведки в маркетинге предприятия, а на основе углубленного исследования разработана методология оценки экономической безопасности предприятий. передового зарубежного опыта. На основе методики изучена динамика развития и современное состояние радиоэлектронной, электронной и приборостроительной промышленности нашей страны, проведен эконометрический анализ факторов, влияющих на экономическую безопасность действующих в нашей стране промышленных предприятий, а также оценена экономическая безопасность предприятий АО «Узэлтеханоат».

**Ключевые слова:** Экономическая безопасность, Маркетинг предприятия, Конкурентная разведка, Научно-теоретические основы, Разработка методологии, Радиоэлектронная промышленность, Эконометрический анализ, Промышленные предприятия.

**Abstract.** The article examines the scientific and theoretical foundations of ensuring the economic security of enterprises, the stages and principles of development of competitive intelligence in enterprise marketing are presented, and the methodology of assessing the economic security of enterprises is developed based on the in-depth study of advanced foreign experience. Based on the methodology, the dynamics of the development and current state of the radioelectronics, electronics and instrumentation industry in our country were studied, an econometric analysis of the factors affecting the economic security of the industrial enterprises operating in our country was conducted, and the economic security of the enterprises within the JSC "Uzeltexanoat" was evaluated.

**Keywords:** Economic security, Enterprise marketing, Competitive intelligence, Scientific and theoretical foundations, Methodology development, Radioelectronics industry, Econometric analysis, Industrial enterprises

## KIRISH

Jahonda oxirgi to‘rt yilda biznes razvedkasi va tahlili xizmatlar bozori hajmi 130 milliard dollardan 200 milliard dollarga yetdi. Katta miqyosdagi korporativ ma’lumotlar bazalari, mobil ilovalar, veb-tahlil ma’lumotlari hamda ijtimoiy media ma’lumotlari katta hajmdagi (BIG data) bilan ishlashga yangi marketing vositalarini joriy etishni taqozo etdi. Marketingning asosiy jihati bo‘lgan mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash, bir nechta turli xil ma’lumotlar manbalari bo‘yicha korrelyatsiyalarni topish hamda mahsulot yoki xizmatlarni sotishni bashorat qilish kabi vazifalarni bajarish uchun raqobat razvedkasi vositalaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi.[1]

Jahonda rivojlangan mamlakatlar Germaniyaning Bundesnachrichtendienst, Fransiyaning SDECE, Shvetsiyaning Upplsnigs Centralen hamda Yaponiyaning JETR kabi tashqilotlarida sanoat ayg‘oqchiligiga qarshi kurashish, korxonalarda raqobat razvedkasini tatbiq etish, zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish, elektrotexnika sanoati korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishlarda keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, elektrotexnika sanoati korxonalari iqtisodiy xavfsizligini zamonaviy marketing yondashuvlari asosida ta’minlashni ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti, jumladan, elektrotexnika sanoati korxonalarining jahondagi raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmonida, xususan, “milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta’minlash” [2] vazifalari belgilab berilgan. Shundan kelib chiqqan holda, elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini oshirish yuzasidan ichki imkoniyatini kompleks rivojlantirish, moddiy-

texnik bazasini tubdan yangilash va mavjud resurslardan samarali foydalanish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish muhim masala bo'lib qolmoqda.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Korxona marketingida raqobat razvedkasi faoliyatini rivojlantirish asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari xorijiy olimlardan Talaoui Y. va Kohtamäki M. [3], Nyanga C., Pansiri J. va Chatibura D. [4], Fahey L.[5], Platt W. [6] va boshqalarning asarlarida tadqiq etilgan.

MDH olimlaridan Doronin A. I.[7], Lemke G.E. [8], Satler V.V.[9], Solomanidina T.O., Yushuk Ye. L., Malseva A.A., Yakoves Yu.V., Kuzik B.N., Kushlin V.I., Gubernatorov A.M. [10], Koreskaya L.K., Belova O.A. [11], Sergeeva I.A., Stepchenko T.S.[12], Dovbysh V.Ye va boshqalar korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hamda raqobat razvedkasini tashkiliy jihatlarini alohida tadqiq etishgan.

O'zbekistonda esa korxonalar iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy va uslubiy asoslari mahalliy olimlarimizdan A.Burxanov, S.G'ulomov, P.Pardayev, T.Shodiyev, N.Maxmudov, B.Berkinov, B.Xasanov va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan.

Yuqoridagi mualliflarning ilmiy ishlarida elektrosanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini raqobat razvedkasi vositalaridan foydalanishni o'rganishga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Shu sababli iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridan hisoblangan elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashni chuqurroq o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

### METODOLOGIYA

Raqobat razvedkasini va sanoat ayg'oqchiligini faqat maqsadlar birlashtirib turadi – kelajakni oldindan tasavvur etish va modellashtirish, xavf-xatarlarni minimallashtirish, shuningdek biznesni tashkil qilishda qo'shimcha foydani va afzalliklarni qo'lga kiritish ko'rinishlarida bo'lishi mumkin. “Razvedka qilish – demak, bilib olish, batafsil, chuqur bilimlarni olish”. Raqobat razvedkasiga va sanoat ayg'oqchiligiga nisbatan – bu o'zining raqobatli, ishbilarmonlik muhiti haqida – biznesning samarali raqobat qilishiga, iqtisodiy jihatdan jon saqlashiga ta'sir ko'rsatadigan barcha narsalar haqida chuqur bilimlarni olish demakdir.

Tadqiqotda imitatsion modellashtirish statistik tahlilning faktorli modeli asosida o'tkazilgan. Barcha omillar nisbatini ifodalovchi karrali model qo'llandi:

$$Z = \frac{x}{y}$$

Bunda buxgalterlik balansi (1-2 shakllar) va moliyaviy natijalar (5-shakl) to'g'risida hisobot asosidagi korxonaning moliyaviy holati ko'rsatkichlari qo'llanadi. Mazkur variantda moliyaviy ko'rsatkichlarining koeffitsiyentli usuli namoyon bo'ladi. Ta'kidlash joizki, moliyaviy mezonlar korxonaning real holatini ko'rsatadi, shuning

uchun mazkur model moliyaviy-xo'jalik faoliyatning barcha ichki mezonlarini aks ettiradi. Modelni moliyaviy mezonlarga moslab imitatsiya qilish kerak.

Moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun juda muhim bo'lgan keyingi koeffitsiyent – bu kapitalning umumiy aylanib turishi samaradorligi darajasini ko'rsatuvchi korxonaning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini rentabelligi:

$$P = \frac{B * 100\%}{\Pi}$$

Hisoblanishi zarur bo'lgan keyingi koeffitsiyent – bu moliyaviy barqarorlik:

$$\Phi y = \frac{CK + ДЛСЗС}{ББ}$$

Moliyaviy barqarorlik korxonani moliyaviy mustaqillik darajasini, uning to'lov qobiliyatini ko'rsatadi.

Keyingi o'rinda quyidagicha tavsiflanadigan, yuqori ta'riflangan modellarni kombinatsiyasidan iborat qo'shma modellar taqdim etildi.

$$Z = \frac{\sum_i x_i}{\sum_i y_i}$$

Natijada iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti integral ko'rsatkichi asosida ishlab chiqilgan iqtisodiy xavfsizlikni baholash model taqdim etiladi:

$$K_{икт.сам.} = \sqrt[8]{K_0 * K_{об} * K_{от} * K_{об.м.с.} * K_{об.д.с.} * K_{об.с.р.} * K_{об.к.р.з.} * \frac{\Phi y}{100} \%}$$

Modelning afzalligi, unda korxona moliyaviy ahvolini tashkil etuvchi omillar negizida korxona faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlarini sinchiklab tadqiq qilinganligidan iborat. Modelni kamchiligi – bu hisoblashlarining murakkabligidir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona iqtisodiy xavfsizligini hisoblashning natijasi raqobat razvedkasi vositalari qo'llashdan ilgari va keyingi holatda korxona faoliyati ko'rsatkichlarining darajasini hisoblashdan iborat. Raqobat razvedkasi vositalari asosida iqtisodiy xavfsizlik darajasi shkalasini kiritildi. (1-jadval)

1-jadval

### Raqobat razvedkasi vositalari asosida iqtisodiy xavfsizlik darajasi shkalasi

| Iqtisodiy xavfsizlik darajalari | Mezonlar        |
|---------------------------------|-----------------|
| Eng past daraja                 | - 1 gacha       |
| Past daraja                     | -1 dan 0 gacha  |
| O'rtacha                        | 0 dan 0,9 gacha |
| Yuqori daraja                   | 0,91 dan yuqori |

Korxona iqtisodiy xavfsizligini hisoblashning natijasi raqobat razvedkasi vositalari qo'llashdan ilgari va keyingi holatda korxona faoliyati ko'rsatkichlarining darajasini hisoblashdan iborat. Raqobat razvedkasi vositalari asosida iqtisodiy

xavfsizlik darajasi shkalasi ishlab chiqildi (eng past daraja - -1 gacha, past daraja - 1 dan 0 gacha, o'rtacha - 0 dan 0,9, yuqori daraja - 0,91 dan yuqori).

Tadqiqot doirasida mamlakatimizda radioelektronika, elektronika va asbobsozlik sanoatining rivojlanish dinamikasi va hozirgi holati o'rganilgan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili o'tkazilgan, "O'zeltexsanoat" AJ tarkibidagi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligi baholangan.

## 2-jadval

### Sanoat taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

| Ko'rsatkichlar                                                                 | 2016-y.  | 2017-y.  | 2018-y.  | 2019-y.  | 2020-y.  | 2021-y.  |
|--------------------------------------------------------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Sanoat mahsulotlari (amaldagi narxlarda), mlrd.so'm                            | 111869,4 | 148816,0 | 235340,7 | 322535,8 | 368740,2 | 451633,9 |
| Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish surati, o'tgan yilga nisbatan %da | 105,4    | 105,2    | 110,8    | 105,0    | 100,9    | 108,7    |
| Yalpi ishki mahsulotda sanoatni ulushi (qurilishni qo'shgan holda), %da        | 43,8     | 46,9     | 55,4     | 60,9     | 61,2     | 61,5     |
| Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati (qurilishni qo'shgan holda), %da           | 26,5     | 31,1     | 34,4     | 34,2     | 34,5     | 26,5     |

Tahlil natijalari ko'rsatishicha sanoat ishlab chiqarishining o'tgan yilga nisbatan o'sishi 2016-yilda 105,4 foiz bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda 105,2 foizni, 2018-yilda 110,8 foizni, 2019-yilda 105,0 foizni, 2020-yilda 100,9 foizni, 2021-yilda esa 108,7 foiz o'sishni tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 2016-yilda 43,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 61,5 foizga yetdi. Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati 2016-yilda 26,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 34,5 bo'lgan bo'lsa, tahlil davri oxirida bu ko'rsatkich 26,5 foizni tashkil qildi (2-jadval).

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, sanoat mahsulotlarining 2000-yildagi ulushi 1 888,9 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsak, 2005-yilga kelib 2000-yilga nisbatan 5,8-marta 2010-yilda esa 20,1 karra, 51,7-marta, 2020-2021-yillarga kelib qariyb 200-marta ko'p miqdorda sanoat mahsulotlari yaratilgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan olinganda 2000-2015-yillarda o'sib, 2019-yilda esa 2018-yilga nisbatan kichik miqdorda o'sganligini Sovid-19 pandemiyasi ta'siri bilan izohlash mumkin. 2021-yilga kelib yana o'sish surati ta'minlangan. Jadvalda qazib oluvchi sanoat va qayta ishlovchi sanoatning dinamikasini ham ko'rish mumkin. (3-jadval).

3-jadval


## Sanoatning asosiy ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkichlar                                                                    | 2000 y. | 2005 y. | 2010 y. | 2015 y. | 2020 y.  | 2021 y.  |
|-----------------------------------------------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|----------|----------|
| Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm                                                | 1888,9  | 11028,6 | 38119,0 | 97598,2 | 368740,2 | 451633,9 |
| Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish surati, o'tgan yilga nisbatan foizda | 101,3   | 103,8   | 105,9   | 105,3   | 100,9    | 108,7    |
| Qazib oluvchi sanoat                                                              | x       | x       | 94,8    | 102,9   | 78,0     | 110,7    |
| Qayta ishlovchi sanoat                                                            | x       | x       | 108,9   | 105,9   | 107,9    | 108,2    |

Ba'zi yillarda iqtisodiyotimizda yaratilgan Yalpi ichki mahsuloti (YAIM) sur'atlariga nisbatan yalpi sanoat mahsuloti (YASM) sur'atlarining yuqoriligi ham ko'zga tashlanadi. Ikkinchi tomondan, sanoat tarmog'ida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat (SYAQQ) sur'atlarining mamlakat YAIM sur'atidan past bo'lishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat sur'atlarining sanoat ishlab chiqarishdagiga nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi (3-jadval). Sanoatda yalpi qo'shilgan qiymatni tashkil etgan sanoat tarmoqlarining ulushini tahlil qilish asosida tarmoqlarda samaradorlik darajasini yanada to'liqroq o'rganish zarurati vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-martdagi "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5011-son Qarori qabul qilinganligi elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirishga turtki berdi. "O'zeltexsanoat" uyushmasi 2014-yil 6-fevraldagi "2014-2018-yillarda respublika elektrotexnika sanoatini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2123-sonli Prezident Qaroriga asosan "O'zeltexsanoat" aksiyadorlik kompaniyasi sifatida qayta tashkil etildi. "O'zeltexsanoat" uyushmasining asosiy vazifalari elektrotexnika sanoati sohasidagi muammolarni yechishga qaratilgan (2-rasm).

Respublikada elektrotexnika sanoatini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, yangi turdagi zamonaviy elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, tarmoqning investitsiyaviy va eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



**1-rasm. “O‘zeltexsanoat” uyushmasining asosiy vazifalari**

Mazkur yo‘nalishlardagi ishlarni yanada jadallashtirish, mahalliy elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sotish uchun yangi bozorlarni o‘zlashtirish, tarmoq korxonalarining ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirish maqsadida 2021-2022-yillar uchun elektrotexnika tarmog‘i samaradorligining quyidagi asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilangan, unga ko‘ra mis xomashyosini chuqur qayta ishlash hajmini 2021-yilda 55 ming tonnaga, 2022-yilda 70 ming tonnaga yetkazish; mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2021-yilda 15 trillion so‘mgacha, 2022-yilda 19 trillion so‘mgacha oshirish; mahsulotlar eksporti hajmini 2021-yilda 450 million AQSH dollari, 2022-yilda 600 million AQSH dollari miqdorida ta‘minlash; tarmoqdagi ish o‘rinlari sonini 2021-yilda 27 mingga, 2022-yilda 34 mingga yetkazish kabi masalalar qo‘yilgan.

Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruhi qarorda belgilangan asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar bajarilishini ta‘minlash va ularni 2023-yilda kamida 30 foizga oshirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish buyurilgan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun, bizningcha, elektrotexnika korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim bo‘ladi.

Muallif tomonidan tadqiqot ishida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati korxonalarining 2010-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan davrdagi ma‘lumotlari asosida ko‘p omilli ekonometrik model tuzib, mazkur korxonalarning iqtisodiy xavfsizligi miqdoriy baholangan. Ushbu korxonalarning iqtisodiy xavfsizligiga ta‘sir etuvchi ekzogen omillarni aniqlash uchun quyidagi omillar tanlab olindi: natijaviy omil - kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish, ming so‘mda ( $Y_1$ ), elektr uskunalari ishlab chiqarish, ming so‘mda ( $Y_2$ ), elektrotexnika, elektr uskunalari va optik mahsulotlar ishlab chiqarish, ming so‘mda ( $Y_3$ ), va ta‘sir etuvchi omillar sifatida esa – muqobil energiya sifatida, issiqlik energiyasi ishlab

chiqarish, ming GKa ( $X_1$ ), quyosh elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan energiyasi, million kVt.soat ( $X_2$ ), hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi (amaldagi narxlarda mlrd.so'm) ( $X_3$ ), elektr uskunalar ishlab chiqarish indeksi (o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan foizda) ( $X_4$ ), hududlar kesimida elektr energiyasi ishlab chiqarish million kVt.soat ( $X_5$ ).

## 4-jadval

**O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati korxonalarining ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari**

Dependent Variable: Y1

Method: Least Squares

Sample: 2010 2021

Included observations: 12

| Variable           | Coefficient | Std. Error            | t-Statistic | Prob.    |
|--------------------|-------------|-----------------------|-------------|----------|
| X1                 | -0.153951   | 0.094747              | -1.624864   | 0.1482   |
| X3                 | 0.015921    | 0.004494              | 3.542561    | 0.0094   |
| X4                 | 6.749973    | 10.61338              | 0.635987    | 0.5450   |
| X5                 | -0.146169   | 0.110432              | -1.323610   | 0.2272   |
| C                  | 10965.02    | 5899.176              | 1.858738    | 0.1054   |
| R-squared          | 0.930765    | Mean dependent var    |             | 1397.754 |
| Adjusted R-squared | 0.891202    | S.D. dependent var    |             | 1689.755 |
| S.E. of regression | 557.3574    | Akaike info criterion |             | 15.77863 |
| Sum squared resid  | 2174531.    | Schwarz criterion     |             | 15.98067 |
| Log likelihood     | -89.67176   | Hannan-Quinn criter.  |             | 15.70382 |
| F-statistic        | 23.52627    | Durbin-Watson stat    |             | 1.371180 |
| Prob(F-statistic)  | 0.000372    |                       |             |          |

**Izoh:** Bu yerda kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmiga elektr uskunalar ishlab chiqarish hajmi qo'shib hisoblangan ( $Y_1 + Y_2 = Y_3$ )

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzishda oldin omillar bo'yicha tavsifiy statistika o'tkazishda Eviews 10 dasturidan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati korxonalarining ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$Y_1 = -0,226X_1 + 0,009X_3 + 6303,9$$

O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati korxonalarining ( $Y_1$ ) ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlarini interpretatsiya qiladigan bo'lsak, ceteris paribus holatda, mamlakatimizda muqobil energiya sifatida issiqlik energiyasi ishlab chiqarish hajmining 1 birlikka oshishi, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab

chiqarish hajmini 0,22 birlikka kamayishiga, hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmining 1 birlikka oshishi, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 0,009 birlikka ortishiga olib keladi.

5-jadval

**O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati korxonalarining (Y<sub>1</sub>) ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari**

Dependent Variable: Y1

Method: Least Squares

Sample: 2010 2021

Included observations: 12

| Variable           | Coefficient | Std. Error            | t-Statistic | Prob.    |
|--------------------|-------------|-----------------------|-------------|----------|
| X1                 | -0.226226   | 0.077630              | -2.914152   | 0.0172   |
| X3                 | 0.009864    | 0.001255              | 7.859844    | 0.0000   |
| C                  | 6309.649    | 2334.633              | 2.702630    | 0.0243   |
| R-squared          | 0.909748    | Mean dependent var    |             | 1397.754 |
| Adjusted R-squared | 0.889692    | S.D. dependent var    |             | 1689.755 |
| S.E. of regression | 561.2130    | Akaike info criterion |             | 15.71040 |
| Sum squared resid  | 2834641.    | Schwarz criterion     |             | 15.83162 |
| Log likelihood     | -91.26238   | Hannan-Quinn criter.  |             | 15.66551 |
| F-statistic        | 45.36030    | Durbin-Watson stat    |             | 1.464740 |
| Prob(F-statistic)  | 0.000020    |                       |             |          |

Ushbu modelning avkorrelyatsiyaga tekshirish testini o'tkazamiz. Bunda Breush-Godfri testi o'tkaziladi.

Agar qo'shni kuzatuvlarda korrelyatsiya mavjud bo'lsa, ushbu tenglamada

$$e_t = p * e_{t-1} + v_t, t = 1, \dots, n$$

(bu yerda  $e_t$  – eng kichik kvadratlar usuli orqali olingan regressiya qoldiqlari)  $p$  koeffitsiyenti noldan farqli bo'ladi.

Modelning avtokorrelyatsiyaga tekshiruv Breush-Godfri testi natijalariga ko'ra, ikkala lag ham (resid (-1) hamda resid (-2)) qiymati mos ravishda 0,5456 va 0,9910 ga teng bo'lib, tasodifiy chetlanishlarning avtokorrelyatsiyasi mavjud emasligi to'g'risidagi  $H_0$  gipotezani qabul qilamiz. Ushbu test natijalariga ko'ra, regressiya qiymatlari ( $p$ ) 0,05 dan katta bo'lib, geteroskedotastiklik mavjud emasligi to'g'risidagi  $H_0$  gipotezani rad etamiz, muqobil gipoteza geteroskedotastiklik mavjud hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati ( $Y_2$ ) korxonalarining ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlarini statistik jihatdan o'rganadigan bo'lsak,  $p$ -value qiymati  $X_1$  (0,40),  $X_4$  (0,41) va  $X_5$  (0,41) larda statistik jihatdan ahamiyatli emasligi aniqlandi.

Ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emasligini tekshirishning yana bitta usuli - bu VIF (Variance Inflation Factors - multikollinearlik samarasini) koeffitsiyentlarini hisoblashdir.

Mamlakatimizda muqobil energiya sifatida issiqlik energiyasi ishlab chiqarish hajmining 1 birlikka oshishi, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 0,22 birlikka

kamayishiga, hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi ning 1 birlikka oshishi, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 0,009 birlikka ortishiga olib keladi. Tadqiqotda taklif etilgan uslubiyotning aprotatsiyasi "O'zeltexsanoat" AJ tarkibidagi ikki korxona – "Foton" AJ va "Zenit electronics" MCHJ misolida amalga oshiriladi.

## 6-jadval

**O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati (Y<sub>2</sub>) korxonalarining ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari**

Dependent Variable: Y2

Method: Least Squares

Date: 05/15/22 Time: 09:50

Sample: 2010 2021

Included observations: 12

| Variable           | Coefficient | Std. Error            | t-Statistic | Prob.    |
|--------------------|-------------|-----------------------|-------------|----------|
| X1                 | -0.087360   | 0.098556              | -0.886401   | 0.4048   |
| X3                 | 0.021057    | 0.004675              | 4.504231    | 0.0028   |
| X4                 | -9.569144   | 11.04001              | -0.866769   | 0.4148   |
| X5                 | 0.099341    | 0.114871              | 0.864810    | 0.4158   |
| C                  | -1975.224   | 6136.307              | -0.321891   | 0.7569   |
| R-squared          | 0.983803    | Mean dependent var    |             | 3737.831 |
| Adjusted R-squared | 0.974547    | S.D. dependent var    |             | 3633.994 |
| S.E. of regression | 579.7617    | Akaike info criterion |             | 15.85745 |
| Sum squared resid  | 2352865.    | Schwarz criterion     |             | 16.05949 |
| Log likelihood     | -90.14469   | Hannan-Quinn criter.  |             | 15.78264 |
| F-statistic        | 106.2944    | Durbin-Watson stat    |             | 1.816978 |
| Prob(F-statistic)  | 0.000002    |                       |             |          |

Iqtisodiy xavfsizlikni hisoblash uchun korxonalarning 2015-2021-yillardagi ishbilarmonlik faolligi, rentabelligi va moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlarini hisoblendi va ko'rsatkichlar solishtirildi. (7-jadval)

## 7-jadval

**"Foton" AJning iqtisodiy xavfsizligini baholash natijalari**

| Ko'rsatkichlar                                | 2015 y.  | 2016 y. | 2017 y.  | 2018 y.  | 2019 y.  | 2020 y.  | 2021 y.   |
|-----------------------------------------------|----------|---------|----------|----------|----------|----------|-----------|
| Mahsulot sotishdan tushgan tushum (ming so'm) | 7910 839 | 1553116 | 13314336 | 15441144 | 17415383 | 21938584 | 23238695  |
| Aktivlar (ming so'm)                          | 56885541 | 5897461 | 6184168  | 8267529  | 8820772  | 9496156  | 9 794 340 |
| O'z mablag'lari (ming so'm)                   | 1114333  | 1114333 | 1114333  | 1114333  | 1114333  | 1114333  | 1114333   |

| Ko'rsatkichlar                                                              | 2015 y.      | 2016 y.      | 2017 y.       | 2018 y.       | 2019 y.       | 2020 y.       | 2021 y.       |
|-----------------------------------------------------------------------------|--------------|--------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|
| Uzoq muddatli qarz mablag'lari (ming so'm)                                  | 59122        | 23650        | 774900        | 796597        | 818901        | 841831        | 841831        |
| Kapital aylanish ko'effitsiyenti                                            | 3,41         | 1,23         | 9,86          | 2,00          | 5,36          | 5,32          | 5,37          |
| Tezroq kapital aylanish ko'effitsiyenti                                     | 2,05         | 1,72         | 0,32          | 1,87          | 1,97          | 2,31          | 2,46          |
| Qaytish ko'effitsiyenti                                                     | 2,05         | 1,72         | 0,32          | 1,87          | 1,97          | 2,31          | 2,46          |
| O'z mablag'larini qaytish ko'effitsiyenti                                   | 7,10         | 8,77         | 1,79          | 13,86         | 15,63         | 19,69         | 21,64         |
| Mablag'larning qaytish ko'effitsiyenti                                      | 1,08         | 0,93         | 0,12          | 1,08          | 1,52          | 2,50          | 2,58          |
| Pul mablag'larining qaytish ko'effitsiyenti                                 | 1,71         | 7,17         | 2,92          | 12,93         | 5,82          | 5,38          | 6,32          |
| Hisob raqamdagi mablag'larning aylanish ko'effitsiyenti                     | 11,55        | 4,62         | 0,56          | 13,44         | 12,36         | 5,62          | 5,70          |
| Kreditorlik qarzlarining aylanish ko'effitsiyenti                           | 7,86         | 30,16        | 40,31         | 45,14         | 553,06        | 284,72        | 115,93        |
| <b>Birinchi formula bo'yicha ishchanlik faolligi</b>                        | <b>13,91</b> | <b>26,34</b> | <b>215,30</b> | <b>186,77</b> | <b>197,44</b> | <b>231,03</b> | <b>237,27</b> |
| <b>Moliyaviy barqarorlik ko'effitsiyenti</b>                                | <b>0,289</b> | <b>0,196</b> | <b>0,180</b>  | <b>0,135</b>  | <b>0,126</b>  | <b>0,117</b>  | <b>0,364</b>  |
| <b>Ishlab chiqilgan model bo'yicha iqtisodiy xavfsizlik ko'effitsiyenti</b> | <b>0,009</b> | <b>0,015</b> | <b>0,000</b>  | <b>0,409</b>  | <b>6,868</b>  | <b>6,011</b>  | <b>6,261</b>  |

“Foton” AJni ma'lumotlarini hisoblab quyidagi xulosaga keldik: oxirgi 7 yil ichida pul tushumlari ko'rsatkichlari sezilarli yaxshilangan, 2021-yilda bu ko'rsatkich 23 238 695,0 ming so'mga teng bo'lgan, korxona aktivlari 3,1 foizga o'sganligi kuzatilgan, sof foyda musbat natijaga ega. Kapitalning umumiy aylanma ko'effitsiyenti 2021-yilda 2015-yilga nisbatan 48,7% oshgan, mobil mablag'lar aylanma ko'effitsiyenti 1,2% oshgan, mablag'lar aylanmasi ko'effitsiyenti 2,39 martaga oshgan va kreditor qarzidorligi aylanma ko'effitsiyenti 65,9 martagacha oshish tendensiyaga ega. Xulosa qilib aytganda iqtisodiy samaradorlik ko'effitsiyenti raqobat razvedkasi vositalari tatbiq etilgandan so'ng 0,25 ko'effitsiyentga oshgan (7-jadval).

Natijada birinchi formula bo'yicha ishbilarmonlik faolligi ko'effitsiyenti 2021-yilda 2015-yilga nisbatan qariyb 17 martaga oshgan, moliyaviy barqarorlik 39,4%

kamaygan, biroq ishlab chiqilgan model bo'yicha hisoblangan iqtisodiy xavfsizlik koeffitsiyenti (2021-yilni olamiz) o'rta darajadagi holatini ko'rsatmoqda. (8-jadval)

8-jadval

**“Zenit electronics” MCHJning iqtisodiy xavfsizligini baholash natijalari**

| Ko'rsatkichlar                                                             | 2017 y.        | 2018 y.        | 2019 y.         | 2020 y.         | 2021 y.         |
|----------------------------------------------------------------------------|----------------|----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Mahsulot sotishdan tushgan tushum (ming so'm)                              | 12355632       | 2012061        | 2117969         | 2325512         | 10746393        |
| Aktivlar (ming so'm)                                                       | 2350925        | 3042048        | 4621094         | 4840000         | 4840000         |
| O'z mablag'lari                                                            | 14949000       | 14949000       | 14949000        | 14949000        | 14949000        |
| Uzoq muddatli qarz mablag'lari (ming so'm)                                 | 20041075       | 20044833       | 20044833        | 19944833        | 19944833        |
| Kapital aylanish koeffitsiyenti                                            | 0,10           | 0,11           | 0,19            | 0,17            | 0,18            |
| Tezroq kapital aylanish koeffitsiyenti                                     | 0,37           | 0,36           | 0,19            | 0,22            | 0,35            |
| Qaytish koeffitsiyenti                                                     | 0,66           | 0,62           | 0,31            | 0,36            | 0,84            |
| O'z mablag'larini qaytish koeffitsiyenti                                   | 0,84           | 0,84           | 0,50            | 0,54            | 0,59            |
| Mablag'larning qaytish koeffitsiyenti                                      | 4,45           | 4,23           | 2,43            | 2,60            | 2,54            |
| Pul mablag'larining qaytish koeffitsiyenti                                 | 28,97          | 1097,14        | 193,71          | 104,00          | 388,19          |
| Hisob raqamdagi mablag'larning aylanish koeffitsiyenti                     | 8,20           | 6,38           | 1,79            | 2,94            | 8,32            |
| Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti                            | 0,70           | 0,66           | 0,33            | 0,32            | 0,57            |
| <b>Birinchi formula bo'yicha ishchanlik faolligi</b>                       | <b>5,3</b>     | <b>0,7</b>     | <b>0,5</b>      | <b>0,5</b>      | <b>2,2</b>      |
| <b>Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti</b>                                | <b>22,7</b>    | <b>17,1</b>    | <b>11,0</b>     | <b>10,5</b>     | <b>10,76</b>    |
| <b>Ishlab chiqilgan model bo'yicha iqtisodiy xavfsizlik koeffitsiyenti</b> | <b>0,00001</b> | <b>0,00019</b> | <b>0,000001</b> | <b>0,000001</b> | <b>0,000025</b> |

Bundan keyin “Foton” AJni va “Zenit electronics” MCHJ bo'yicha moliyaviy baholash mezonlari hisoblab chiqilgan. “Zenit electronics” MCHJ ma'lumotlarini hisoblab quyidagi xulosaga kelamiz: 5 yil ichida pul tushumlari ko'rsatkichlari oshadi, lekin mahsulot tannarxi ko'tarilgani sababli foyda sezilarli darajada pasaydi, 2021-yilda pul tushumlari 110714,99 ming so'mga oshdi, korxona aktivlari 125271,11 ming so'mga oshganligi kuzatildi, o'zining kapitali 6683,04 ming so'mga kamaydi, sof foyda esa manfiy natijaga ega. Ishlab chiqilgan model bo'yicha iqtisodiy xavfsizlik

koeffitsiyenti hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkchilari korxonada raqobat razvedkasi vositalari tatbiq etilgandan keyin qariyb 0,25 koeffitsiyentga oshganligini ko'rishimiz mumkin (8-jadval).

Tadqiqot natijalariga ko'ra moliyaviy koeffitsiyentlar oshish tendensiyaga ega, ammo sof foydani, taqsimlanmagan foydani, o'zining kapitali pasayishi tufayli hisoblashda moddiy mablag'lar aylanishi koeffitsiyenti, pul mablag'lari aylanmasi koeffitsiyenti, mablag'lar aylanmasi koeffitsiyentlari pasaydi. Natijada 2021-yilda 2017-yilga nisbatan ishbilarmonlik faolligi koeffitsiyenti birinchi formula bo'yicha 2,82% oshdi ishlab chiqilgan model bo'yicha hisoblangan iqtisodiy xavfsizligi koeffitsiyenti 2017-yildan to 2019-yilgacha manfiy tendensiyaga ega, faqat oxirgi uch yilda shkala bo'yicha daraja past, ya'ni korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo'yicha birorta chora sifatida raqobat razvedkasi vositalari taklif etilgan.

O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosini hal qilish uchun ikkita variant mavjudligini ko'rsatadi.

1. Inersion ssenariy mamlakatning elektrotexnika sanoati kompleksi rivojlanishidagi mavjud tendensiyalarni hech qanday katta o'zgarishsiz mavjud rivojlanish dinamikasini saqlashni ta'minlaydi. Bu ichki bozorda import ulushining yanada oshishiga va keyinchalik ushbu tarmoq eksportini qisman qisqarishiga olib keladi.

2. Maqsadli modernizatsion ssenariysi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ilmiy-tadqiqot sohasida, korxonalarning moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash olib boriladi, korxonalarda raqobat razvedkasi faoliyati yo'lga qo'yiladi, tashqi va ichki muhitdagi xavf-xatarlarga qarshi strategiya ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Elektrotexnika sanoati sanoatining mahsulot ishlab chiqarish hajmini prognozlashning asosiy maqsadi mahsulot sotishdan tushgan sof tushum, aktivlar rentabelligi, mulk qiymatining oshishi, kimyo sanoati tarmog'ida ishlab chiqarish salohiyatidan maksimal foydalanilishi orqali erishiladigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblashdan iborat. O'zbekiston Respublikasida elektrotexnika sanoati tarmog'ida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning 2001-2021-yillardagi o'zgarishlari va ushbu asosiy vositalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi asosida istiqbolli o'zgarishlarni bir necha ssenariylarda prognozlash mumkin.

Elektrotexnika sanoati korxonalari ishlab chiqarish hajmining inersion ssenariy hamda rivojlanishning minimal kritik nuqtasi holatidagi prognozlash uchun regressiya funksiyalari asosida natijalar olindi. Olingan model (1) bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining ahamiyatliligi  $R^2 = 0.88$  da  $p \leq 0,05$  bo'lib, prognozni model bo'yicha olingan qiymatlari asosli ekanligini bildiradi.

Olingan regressiya modellari asosida inersion ssenariy elektr uskunalari ishlab chiqarish hajmi 2030 yilda 17237,3 mlrd. so'mni tashkil etishi, maqsadli modernizatsion ssenariy elektrotexnika sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2030 yilda 27715,5 mlrd. so'mni tashkil etishi aniqlandi (9-jadval).

9-jadval

**O‘zbekiston Respublikasida elektr uskunalar hamda kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarishning 2030-yilgacha uchun prognoz ko‘rsatkichlari (mlrd.so‘m)**

| Yillar | O‘zbekiston Respublikasida elektr uskunalar ishlab chiqarishning 2030-yilgacha uchun prognoz ko‘rsatkichlari |                                  | O‘zbekiston Respublikasida kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarishning 2030-yilgacha uchun prognoz ko‘rsatkichlari |                                  |
|--------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------|
|        | Inersion ssenariy                                                                                            | Maqsadli modernizatsion ssenariy | Inersion ssenariy                                                                                                                       | Maqsadli modernizatsion ssenariy |
| 2022   | 9789,3                                                                                                       | 11942,0                          | 3661,9                                                                                                                                  | 6708,5                           |
| 2023   | 10720,3                                                                                                      | 13852,7                          | 4010,2                                                                                                                                  | 7781,8                           |
| 2024   | 11651,3                                                                                                      | 15515,0                          | 4358,5                                                                                                                                  | 8793,5                           |
| 2025   | 12582,3                                                                                                      | 17997,5                          | 4706,8                                                                                                                                  | 10200,4                          |
| 2026   | 13513,3                                                                                                      | 19784,0                          | 5055,1                                                                                                                                  | 11242,9                          |
| 2027   | 14444,3                                                                                                      | 21766,8                          | 5403,4                                                                                                                                  | 12391,6                          |
| 2028   | 15375,3                                                                                                      | 23749,7                          | 5751,7                                                                                                                                  | 13540,3                          |
| 2029   | 16306,3                                                                                                      | 25732,6                          | 6100                                                                                                                                    | 14689,1                          |
| 2030   | 17237,3                                                                                                      | 27715,5                          | 6448,3                                                                                                                                  | 15837,8                          |

Shuningdek, inersion ssenariy elektr uskunalar ishlab chiqarish hajmi 2030 yilda 6448,3 mlrd. so‘mni tashkil etishi, maqsadli modernizatsion ssenariy elektrotexnika sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2025 yilda 15837,8 mlrd. so‘mni tashkil etishi aniqlandi (9-jadval).

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respublika bo‘yicha elektrotexnika sanoati tarmog‘ida 2030-yilgacha rejalashtirilayotgan modernizatsiya siyosati natijasida yuzaga keladigan optimistik ssenariy asosida rivojlanishi begilangan bo‘lib, uning quyidagi afzalliklari orqali amalga oshiriladi:

- iqtisodiyotning real sektori ilmiy-tadqiqot ishlari uchun xarajatlarning bir qismini moliyalashtirish orqali ilmiy-tadqiqot sohasida davlat-xususiy sheriklik aloqalarini rivojlantirish;
- litsenziya olish yoki ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida mashinasozlik kompaniyalari jalb etadigan ssudalar bo‘yicha davlat kafolatlarini berish;
- korxonalarda marketing faoliyatini jadallashtirish, raqobat razvedkasini rivojlantirish.

Modernizatsion ssenariyni amalga oshirish natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi:

- olib borilayotgan izlanishlar va ishlanmalarning muvofiqlashtirilishini kuchaytirish hisobiga yangi mahsulotlarni yaratish va yaratish muddatlarini qisqartirish;
- byudjetdan tashqari manbalardan qo‘shma moliyalashtirishning o‘sishi;

- investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimolini oshirish, tadqiqotlar va ishlanmalarning ustuvor yo'nalishlarini tanlashning mantiqiyliigi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stephen L. France, Sanjoy Ghose. Marketing analytics: Methods, practice, implementation, and links to other fields. Expert Systems with Applications. Volume 119, 1 April 2019, Pages 456-475. <https://doi.org/10.1016/j.eswa.2018.11.002>
2. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Talaoui Y. and Kohtamäki M. (2020), «35 years of research on business intelligence process: a synthesis of a fragmented literature», Management Research Review, Vol. ahead-of-print No. ahead-ofprint. DOI: <https://doi.org/10.1108/MRR-07-2020-0386>;
4. Nyanga C., Pansiri J. and Chatibura D. (2019), «Enhancing competitiveness in the tourism industry through the use of business intelligence: a literature review» // Journal of Tourism Futures. Vol. 6 No. 2, pp. 139-151. DOI: <https://doi.org/10.1108/JTF-11-2018-0069>;
5. Fahey L. (2007), «Connecting strategy and competitive intelligence: refocusing intelligence to produce critical strategy inputs», Strategic Direction, Vol. 23 No. 4. DOI: <https://doi.org/10.1108/sd.2007.05623dad.003>;
6. Platt W. Strategic Intelligence Production. Basic Principles. – New York: Frederic A. Praeger, 1957.
7. Доронин А. И. Бизнес-разведка. – М.: Ось-89, 2010. – 704 с.;
8. Лемке Г.Э. Коммерческая разведка для конкурентного превосходства. – М.: Московская Финансово-Промышленная Академия, 2011. – 352 с.;
9. Сатлер В.В. Использование конкурентной разведки для повышения конкурентоспособности предприятия [Электронный ресурс] // Актуальные вопросы экономических наук. – 2009. – С. 170-175.;
10. Губернаторов А.М., Корецкая Л.К. Конкурентная разведка как эффективный инструмент конкурентной борьбы // Экономика и управление: проблемы, решения. – 2018. – Т. 2. – № 11. – С. 24-28.;
11. Белова О.А., Сергеева И.А. Конкурентная разведка и промышленный шпионаж как инструмент конкурентной борьбы и обеспечения экономической безопасности // Сборники конференций НИЦ Социосфера. – 2020. – № 24. – С. 164-167.;
12. Степченко Т.С., Довбыш В.Е. Промышленный шпионаж и конкурентная разведка как современные методы изучения ситуации на рынке // Экономика и предпринимательство. – 2015. – № 11-1 (64). – С. 900-903.